

4. Научная работа "Роль лексики и грамматики в формировании национального характера" <https://infourok.ru/nauchnaya-rabota-rol-leksiki-i-grammatiki-v-formirovanii-nacionalnogo-haraktera-1627127.html>

5. Роль лексики и грамматики в формировании личности и национального характера - Студенческий научный форум <https://scienceforum.ru/2022/article/2018029829>

6. Роль языка в формировании личности [http://wearelinguists.narod.ru/materials/mkk/rol\\_yazyka.html](http://wearelinguists.narod.ru/materials/mkk/rol_yazyka.html)

## ENG SODDA GEOMETRIK EGRI CHIZIQLAR

*O'zbekiston -Finlandiya Pedagogika instituti*

*San'atshunoslik fakulteti*

*Tas'viriy san'at va muhandislik grafikasi*

*202 -guruh talabasi*

**Erkayeva Mehrinoz**

**Abduvahobova Mashhura**

**Abstract:** *This article provides information about the simplest geometric curves.*

**Key words:** *curve, geometric object, geometric shape, experiment, problem*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о простейших геометрических кривых.*

**Ключевые слова:** *кривая, геометрический объект, геометрическая форма, эксперимент, задача.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada eng sodda geometrik egri chiziqlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Egri chiziq, geometrik obyekt, geometrik shakl, urinma, masala*

Egri chiziqlar matematiklarni qadim davrlardanoq qiziqtirib keladi. To'raligicha egri chiziqli obyektlarga bag'ishlangan va ularni o'rganish tarixi haqida hikoya qiladigan kattagina tarixiy kitob yozish ham mumkin. Biroq egri chiziqning o'zi nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Mashhur nemis matematigi Feliks Klyayn kunlardan bir kun achchiqlanish bilan xitob qilib: "Egri chiziqqa ta'rif berishdan ham mujmal narsa yo'q!" - degan edi. Klyayn achchiqlanganicha bor. Bir qarashda juda sodda ko'rinadigan shunchaki egri chiziq tushunchasi eng kuchli matematiklar uchun ham biroz murakkab tushunchalar qatoriga kiradi. Shunga qaramay, egri chiziqlarning matematikadagi, ayniqsa texnikadagi muhim ahamiyatini inobatga olsak, ularni o'rganish bejizga ilm-fan oldidagi dolzarb masalalar sirasiga kirmasligini anglab yetamiz. Quyida ushbu murakkab geometrik obyektga imkon qadar sodda ta'riflar keltirishga harakat qilamiz. Egri chiziqli obyektlar - tabiatning uzviy bir qismidir. Ulardan ba'zilari mukammal obyektlar sirasiga kiradi. Mukammal obyekt deganda bu o'rinda, matematik jihatdan ifodalash mumkin bo'lgan obyektlar nazarda tutiladi. Masalan, jismning erkin tushish trayektoriyasini ifodalovchi egri chiziq, yoki, sayyoralarning orbita bo'ylab harakat trayektoriyasini ifodalovchi egri chiziqli obyektlar shular jumlasidandir. Yana shunday egri chiziqli obyektlar borki, ular matematik ijod natijasidan hosil bo'ladi. Bunday obyektlarni muayyan formulalar, yoki, muayyan qat'iy shartlar bo'yicha aniqlanadigan nuqtalarning geometrik o'rniga asoslanib aniqlanadi. Egri chiziqli obyektlar ichida juda soddalari ham, juda murakkablari ham mavjud. Sodda egri chiziqlarga masalan aylanani misol keltirish mumkin. Uni oddiy qalam va ip yordamida juda